O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

FERUZA XAKIMOVA

“MAXSUS CHOLG‘U”

(Afg‘on rubobi sinfi uchun**)**
5111000 - Kasb ta’limi (5151600 - Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
ta’lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma))

Тошкент 2019

UDK:431.364.33
KBK: 85.316
X-30

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5111000-Kasb ta’limi (5151600-Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)) ta’lim yo‘nalishining o’quv rejasi asosidagi “Maxsus cholg‘u” fanining afg‘on rubob sinfi uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada afg‘on rubobi cholg‘usi tarixidan qisqacha ma’lumot, cholg‘uning shakllanishi va rivojlanishi, sozandalarning ijrochilik faoliyatlari tahlil etilgan. Afg‘on rubobi cholg‘usi bo‘yicha dastlabki ijro etish malakalarini egallash va kelgusida xalq kuylari, bastakorlar asarlari, maqomlar hamda sharq xalq kuylarini o‘zlashtirishi va ansambl ijrosi uchun tavsiyalar berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan “Xalq cholg‘ularini o‘rganish” fani hamda “Maxsus cholg‘u” fanlarida oliy o‘quv yurtlari talabalari foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

M.G‘opurov - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

K.Azimov O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi professori

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Ilmiy kengashining 2019-yil 9 - fevraldagi yig‘ilishida (133-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-56-648-4

© «Navro`z» нашриёти 2017

Kirish

Inson tarbiyasi, uni kamolga yetkazish muammosi har doim ham eng muhim vazifalardan hisoblangan. Boshqacha so‘z bilan aytganda insoniyatning kelajagi, ijtimoiy taraqqiyotning omili avvalo ta’lim-tarbiya va shakllangan ma’naviy-ma’rifiy muhitga bog‘liqdir. Shubhasiz, bunda yoshlar tarbiyasi, ular tafakkuridagi o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, mamlakatimizda ta’lim-tarbiyaning eng ta’sirli vositalaridan biri bo‘lmish musiqa san’atiga jiddiy e’tibor qaratilib, musiqiy ta’lim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilindi. Islohotlarga “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asos bo‘ldi.

Madaniyat sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o‘rganish asosida madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, ularning tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor berilib, 2002 yilda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoniga binoan Toshkent davlat konservatoriyasiga - “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi” maqomi berildi.

2012 yil 4 iyundagi PQ–1771-sonli qarori bilan Toshkent davlat san’at instituti va Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti negizida yangi “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti” tashkil etildi. Ularga jahon andozalari asosida yangidan maxsus binolar barpo etilib, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi.

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san’at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e’tibor

berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va o‘rganish maqsadida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2017 yil 3 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san’atimizni rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo‘llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi.

Davlatimiz rahbarining uchrashuvdagi ma’ruzasida madaniyatimiz va san’atimizning rivojlanish jarayonlari, bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotiga ta’siri xolisona va tanqidiy baholanib, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida atroflicha fikr yuritildi. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyati chuqur tahlil etildi.

Ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o‘rni va vazifasi haqida muhim va dolzarb fikrlar bayon qilindi.

Prezidentimiz xalqimizning ma’naviy kamolotida ijodkorlarning xizmati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida barcha sohalar vakillari qatori madaniyat va san’at ahlidan ham yanada faollik, yangi-yangi ijodiy g‘oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi talab etilayotganini ta’kidladi. Prezidentimiz bo‘lib o‘tgan ochiq va samimiy muloqotning ahamiyati, mantiqiy natijasi haqida so‘z yuritib, **“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas**

qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”[1], degan fikrni qat’iyat bilan ta’kidladi.

Shu bilan birga oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, PQ-2909-son qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qarorga ko‘ra, oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishda har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi tursdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalaridagi ixtisoslik yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish hamda oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash eng muhim vazifalari etib belgilab olindi.

[1] Xalq sozi gazetasi 2017й. 4 август .

Respublikamizning barcha ta’lim muassasalari kabi oliy ta’lim muassasalari talaba va professor-o‘qituvchilari uchun ham yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish ishiga barcha mutaxassislar tomonidan jiddiy yondoshilmoqda. Bu borada erishilayotgan muvaffaqiyatlarning salmog‘i katta.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ham Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga ularning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyasini, xalqimizning yuksak ma’naviyati va insonparvarlik an’analariga sadoqat tuyg‘usini chuqur singdirish maqsadida 5111000-Kasb ta’limi (5151600-Xalq ijodiyoti (cholg’u ijrochiligi)) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Qo‘llanmada afg‘on rubobi cholg‘usi tarixi, cholg‘uning shakllanishi va rivojlanishi, sozandalarning ijrochilik faoliyatlari yoritilgan. Talabalarning afg‘on rubobi cholg‘usi bo‘yicha dastlabki ijro etish malakalarini egallashlari va kelgusida xalq kuylari, bastakorlar asarlari, mumtoz asarlar hamda sharq xalq kuylarini o‘rganishlari va ansambl ijrosi uchun tavsiyalar berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan “Maxsus cholg‘u” fani bilan bir qatorda “Xalq cholg‘ularini o‘rganish” fani o‘qitilishida ham keng foydalanish mumkin.

I Bob. Afg‘on rubobi

Ushbu bobda afg‘on rubobi cholg‘usining qisqacha tarixi, cholg‘uning ikki xil nomlanishi, Sharq allomalarining cholg‘u haqidagi ta’rifi haqida so‘z yuritiladi. Dastlabki ijrochilik va cholg‘uning keyingi turi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1.1. Afg‘on rubobi yohud Buxoro rubobining qisqacha tarixidan

Afg‘on rubobi - sharq xalqlarining juda qadimiy torli-mizrobli musiqa cholg‘usidir. Afg‘on rubobi Afg‘oniston, Hindiston, Pokiston, Misr, Xitoy kabi mamlakatlarda, shuningdek, O’rta Osiyoda O‘zbek va tojik xalqlari orasida keng qo‘llaniladi. Bu cholg‘u Afg‘on rubobi yoki Buxoro rubobi deb ham ataladi. Afg‘on rubobining kelib chiqish tarixi haqida aniq ma’lumotlar bo‘lmasada, turli ma’nbalarda turlicha ma’lumotlar berilgan.

Al Forobiy (X asr) o‘z davrining musiqa cholg‘ularini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini unung afzalliklaridan biri deb hisoblaydi: “Rubobda boshqa yaxshi sifatlar ham bor. Bular faqat unung o‘zigagina xos. Unda baland va mayin chalish mumkin”2

Darvesh Ali (XVII asr) “Musiqa haqida risola” asarida musiqa cholg‘ularining tuzilishini bayon qilar ekan: “Rubob - torli musiqa cholg‘usi. O’rta Osiyoda Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davrida tarqaldi… shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo‘q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi…Rubobda beshta tor bo‘lib, ulardan to‘rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi” 3,-deb yozadi.

Afsonalarda aytilishicha: “Buxoro amirligi davrida qo‘shni Afg‘oniston xududidan Buxoroyi-Sharifga bir musofir afg‘on kelib qolgan.

Biroq u zardushtiylar va buddaviylardan qolgan “Mag‘oki” masjidi oldidagi shotut daraxti soyasida o‘tirib qoladi. Bu davrda masjidning o‘ng tomonidagi madrasaning rasta-do‘konchalari qatorida buxorolik usta sozgar Mahmud ham bo‘lgan va u bu musofirni ko‘rib, uning kayfiyati va g‘amgin qiyofasi ko‘ziga ko‘rinib, uni uzoq kuzatadi. Xullas, sozgar Mahmud musofirni o‘ziga chaqirib, urf-odatga ko‘ra izzat-hurmat va e’htirom bilan mehmon qiladi. Tanishganlaridan so‘ng, mayda ishlar bilan uzoq vaqt ta’minlab turadi, keyinchalik Afg‘onistonlik musofir “Qobullik”ni shogirdlikka oladi.” (Qobul Afg‘oniston poytaxti)

Buxoro ahli u yo bu tomonga o‘tayotganlarida ushbu antiqa rubobni afg‘on-bola qo‘lida ko‘rib, uning ajoyib tovushi va ko‘rinishi bilan tanishib boradilar. Shuningdek, cholg‘u afg‘on-bola qo‘lida yasalgani va u muallif ekanligini bilib, “Kimning yaratgan cholg‘usi?” - usto sozgar Mahmud deb so‘raganlarga, Buxoroyinning shogirdi sozgar afg‘on – qobuliy ixtirosi, demak afg‘onniki!”, deya tilga olinib kelingan. Ammo u - “Buxoro-rubobi” dir, deyilgan.

Ma’lumotlardan ham bilish mumkinki, afg‘on yoki Buxoro rubobi deyilishi bejiz emas.

Afg‘on rubobi ikki xil ko‘rinishda bo‘lib, qadimgi an’anaviy hamda hozirgi professional ijrodagi takomillashtirilgan turlari mavjud.

An’anaviy afg‘on rubobining ko‘rinishi

Afg‘on rubobining kosasi ponasimon shaklda katta va chuqur bo‘lib, yon tomonlarida o‘yiqlari bor, dastasi kalta (8-10sm) bo‘lib, uchi bir oz orqaga qayrilgan. Kosasi, bilan dastasi yaxlit yog‘ochdan (ko‘pincha tutdan) o‘yib yasaladi. Dastasi pardalarga bo‘linadi, unung pastki qismi kengaya borib qopqoqqa ulanib ketadi va kosaning ustini o‘yiqlarga qadar yopadi. Dastaning qolgan qismiga teri qoplanadi.

Afg‘on rubobining umumiy uzunligi 70-80 sm. Uning dastasiga, 4-5ta asosiy parda, taxta qoplamasiga esa 6-7 ta qo‘shimcha xasparda o‘rnatilgan.

Afg‘on rubobi kvartaga sozlanib, ohangdor tovush hosil qiluvchi 5ta asosiy tor va yon quloqlarga tortilib sekundaga sozlanadigan aks sado beruvchi 10-11 ta yordamchi torlari bo‘lib, asosiy torlar ichakdan, yordamchilari esa metal (po‘lat)dan tayyorlangan. Ularda bir oktavadan ortiqroq diapazondagi diatonik tovushqator hosil qiladi.

An’anaviy afg‘on rubobining sozlanishi



Sado beruvchi torlari



Bu afg‘on rubobida mohir sozanda, o‘zbek musiqa san’atini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan ustozlardan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” (1902-1966) Najmiddin Nasriddinov, taniqli sozanda, xalq maorifi a’lochisi xalq kuylarining mohir ijrochisi, alohida

ijro maktabiga ega bo‘lgan ustoz (1912-1997) To‘ra Jo‘raev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1918-1983) Tovur Jumayev, mohir sozanda (1919-1985) Umarjon Hamidov hamda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, taniqli bastakor, iste’dodli murabbiy va atoqli ijrochi (1922-1994) Ergash Shukurullayevlar tomonidan kuylar ijro qilingan.

Afg‘on rubobi, boshqa cholg‘ular singari XX asrning 30-yillari oxiri va 40-yillarning boshlarida San’atshunoslik institutining eksperimental laboratoriyasida professor A.I.Petrosyans boshchiligida (hozirgi vaqtda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ixtiyorida) takomillashtirildi.

Cholg‘uning yordamchi sado beruvchi torlari olib tashlanib, dastasi uzaytirildi, qorni ixchamlashtirilib, dastaga temperatsiyalangan to‘la xromatik yarim ton tovushqatorga asoslangan ebonit qalamchalardan pardalar o‘rnatildi. Cholg‘uning asosiy ochiq 5ta torlari kvartaga sozlanadigan bo‘ldi. Takomillashtirilgan afg‘on rubobining diapozoni kengaytirilishi sozandaga bir qancha qulayliklar yaratdi. Ijrochining texnika imkoniyatlarini yaxshilashga imkon berdi. Shuningdek milliy an’anaviy kuy-qo‘shiqlarimiz bilan birga jahon kompozitorlarining yirik shakldagi asarlarini ijro qilish imkoni tug‘ildi.

O‘zbek sozandachilik san’atida ko‘p cholg‘ular qatorida afg‘on rubobi o‘zining jarangdorligi, ko‘rinishi va inson qalbiga yaqinligi, o‘rganish hamda ijro etish bir muncha qulayligi bilan xalqimizning sevimli cholg‘ularidan biriga aylangan. Hozirgi kunda afg‘on rubobi o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambllari hamda orkestrlarida o‘z mavqeyiga ega bo‘lib, yakkasoz cholg‘u sifatida keng tarqalgan.

Ushbu cholg‘u respublikamiz ijrochilik madaniyatining, musiqa ta’lim tizimida ilk bor maxsus sinf sifatida 1960-yilda R.M Glier nomidagi Respublika o‘rta maxsus musiqa maktabida va 1964-yilda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida, 1974 yildan O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat (Toshkent davlat madaniyat) institutida ochildi. Hozirgi kunga qadar respublikamizning barcha viloyatlarida bolalar musiqa va san‘at maktablari hamda madaniyat va san‘at kollejlarida alohida sinf sifatida yoshlarga o‘rgatilib kelinmoqda.

Afg‘on rubobi haqida so‘z borganda benazir sozanda, cholg‘u ijrochiligi san’ati an’anaviy va akademik ijro yo‘lining mohir ustasi, professor Suleyman Taxalov ijodiga to‘htalishni joiz topdik.

Suleyman Taxalov 1935 yilda Buxoro shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Otasi Mani Xaimovich Taxalov (1890-1975) birinchilardan bo‘lib “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoniga sazovar bo‘lgan. Onasi Nekkadam Taxalova (1905-1945) mehribonlik uyida tarbiyachi, maktabda o‘qituvchi lavozimida ishlab kelgan. Yosh Suleyman Taxalov bolaligidan diniy adabiyotlarga va soznavoz ishlarga ishtiyoqi baland bo‘lgan. 1953-1958 yillar Buxoro davlat musiqa bilim yurtida afg‘on rubobi bo‘yicha O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchilar Najmiddin Nasretdinov va maqomchi tanburchi Ma’rufjon Toshpo‘latov hamda Aminjon Ismatovlardan, musiqa nazariyasi bo‘yicha ustozi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir pedagog, dirijor hamda kompozitor Axmadjon Ixtiyorovdan bilim olgan. 33 yil (1958-1991) davomida Toshkent davlat konservatoriyasida mehnat qilgan. Ish faoliyati davomida 80 dan ortiq O‘zbekiston, Tojikiston, Qoraqalpog‘iston, Turkmaniston Respublikalarida xizmat ko‘rsatgan artistlar, dotsentlar,

doktorlar, professorlar hamda qator tanlovlar laureatlaridan shogirdlar etishtirdi.

O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston xalq artisti, professor X.Lutfullayev, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori Tohir Yo‘ldoshev, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Rifatilla Qosimov, O‘zbekiston Bastakorlar uyshmasi Buxoro viloyat bo‘limi rayisi, Buxoro musiqa va san‘at maktabi direktori Mashrab Qodirov, Ist’edodli tanburchi va murabbiy, mohir xonanda Respublika tanlovlari laureati Shodi Sharipov, Afg‘on rubobi bo‘yicha Respublika tanlovlari laureati ko‘p yillar xalq cholg‘ular kafedrasida ijod qilgan Ilyos Raximov, Taniqli sozanda tanburchi ustoz Qahramon Qosimov, Qashqar rubobchi Ilhom Irtoyev, Qashqar rubobi bo‘yicha Respublika tanlovlari laureati Rustamjon Karimov, Buxoro davlat universiteti musiqa kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Fayzulla To‘rayev singari iste‘dodli san’atkor va murabbiylar hozirgi kunda ustozning ishlarini davom ettirib musiqa san’atini rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Professor Suleyman Taxalov bizgacha yetib kelgan xalq kuylari, maqom, shashmaqomlarni milliy cholg‘ularimizda an’anaviy yo‘lda ijro etish maxoratini takomillashtirishga birinchilardan bo‘lib o‘z xissasini qo‘shgan moxir sozanda, taniqli ustozdir. Suleyman Taxalov “Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari” metodik qo‘llanmasining muallifidir. Ushbu qo‘llanmada milliy cholg‘ularimizda an’anaviy ijrochilikni, nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida katta ilmiy-nazariy, amaliy tadqiqot ishlarini targ‘ibot qilgan. Milliy cholg‘ularimiz afg‘on rubobi, qashqar rubobi, tanbur va ud sozlarida milliy bezaklarni nota asosida qanday ijro qilishni o‘rgatishning asoschilaridan hisoblanadi.

Milliy cholg‘ularimizni o‘rganishda ushbu o‘quv qo‘llanma barcha ijrochilar uchun asosiy poydevor bo‘lib hizmat qilmoqda.

I bob yuzasidan savollar.

1. Afg‘on rubobi cholg‘usi haqida Sharq allomalarining fikrlari.
2. Afg‘on rubobi cholg‘usi haqida nimalar bilasiz?
3. A’nanaviy afg‘on rubobi ijrochilaridan kimlarni bilasiz?
4. A’nanaviy afg‘on rubobidan, takomillashtirilgan afg‘on rubobining farqi ?
5. O‘zbek xalq cholg‘ulari orasida afg‘on rubobining tutgan o‘rni?
6. “Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari” metodik qo‘llanmasininng muallifi kim?
7. Suleyman Taxalov qachon tug’ilgan?
8. Suleyman Taxalov hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?

I bob yuzasidan topshiriqlar.

1. S.Taxalovning “Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari” metodik qo‘llanmasi bilan tanishib chiqing.
2. Afg‘on rubobi cholg‘usining mohir ijrochilari haqida ma’lumot to‘plash.
3. An’anaviy afg‘on rubobi va takomillashtirilgan afg‘on rubobining farqini ijroda sinab ko‘ring.
4 .S.Taxalov hayoti va ijodi haqida to‘liq ma’lumot bering.
5. S.Taxalov ijrosidagi audio tasmalardan tinglang.
6. O‘zbek xalq cholg‘ulari orasida afg‘on rubobining tutgan o‘rni haqida gapirib bering.

II Bob. Milliy cholg‘uda ijro etish ko‘nikmasi

2.1. Afg‘on rubobini ijro etish uslublari xususida

Milliy cholg‘uda ijro etish ko‘nikmasini hosil qilish uchun talaba auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari mustaqil talim davrida o‘z ustida kop ishlashi lozim.

Musiqa - yunoncha so‘z bo‘lib u insonning hayoti davomida, ruhiyatning so‘z bilan emas, balki tovushlar uyg‘unligi bilan ifodalanuvchi nag‘ma - ovozlardir. Musiqani afg‘on rubobi cholg‘usida o‘rganib, uni ilmiy, nazariy, amaliy tadbiq etib, mohir sozanda bo‘lish uchun, musiqa qonun-qonuniyatlarini bilishini hayot taqozo etadi.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchi-talabalarga xalqimizning boy merosi bo‘lgan xalq mumtoz kuylari, maqomlar va qardosh xalqlar kuylari bilan birga jahon kompozitorlari asarlarini mukammal, to‘laqonli ijro etishni o‘rgatish va uni targ‘ibot qilishdir. Xalq mumtoz kuylari, maqomlarni an’anaviy yollarda ijro etish, afg‘on rubobi ijrochilarini milliy musiqamizga bo‘lgan e’tiborini oshirsa, qardosh xalq kuylari va jahon kompozitorlari asarlari o‘quvchi-talabalarni ijro mahoratini oshishida, shakllanishida yordam beradi.

Musiqa cholg‘u ijrochiligini mukammal egallamoqchi bo‘lgan o‘quvchi, qiziqishi bilan birga boshlang‘ich musiqa bo‘yicha bilim, ko‘nikmaga ega bo‘lishi shart. Chunki nota bilan o‘qitish, solfedjio va musiqa nazariyasi bo‘yicha olingan bilimlar o‘quvchilarni oliy ta’lim tizimida o‘qishni davom ettirish jarayonida qiyinchiliklar tug‘dirmaydi.

Bu sohadagi mutaxassis o‘qituvchi, talabada kasbga, o‘zi tanlagan cholg‘uga ma’suliyat bilan qarash hissini tarbiyalay olishi kerak. Afg‘on rubobi cholg‘usida yuqori mahorat bilan ijro etish uchun talaba

mashaqqatli mehnatga tayyor, sabr-toqatli, tirishqoq, irodali va oʻz ustida muntazam ishlashi darkor. Bu xislatlar ijro paytida talabadan har bir tovushni sadolanishini his etish va eshitish malakasini oshirib, afgʻon rubobi cholgʻusida aniq, sof tovush hosil qilish, kuylarni xotirada saqlab qolish qobiliyatini oshiradi.

Notaga qarab ijro etish ancha murakkab jarayon boʻlib, talabadan sabr-toqat, diqqat e'tiborni talab qiladi. Talaba muntazam ravishda kuylarni notaga qarab ijro etish bilan shugʻullanganda turli davrga mansub boʻlgan rang-barang musiqa asarlari bilan tanishadi. Notaga qarab ijro etishga qancha koʻp vaqt sarflansa, bu oʻz navbatida ma'lum ijobiy natija beradi. Notaga qarab ijro etishning eng muhim shartlaridan biri ijrochining nigohi nota matnidan uzulmasligidadir. Notaga qarab ijro etishni amalga oshirilayotgan paytda talabadan nota matnidagi barcha belgilarni, asarning tuzilishi, mazmuni, shakli va boshqa xususiyatlari bilan tanishish imkoniyati tugʻiladi. Musiqiy asarlarni birinchi mashgʻulotlaridan boshlab, matnni toʻgʻri sanab oʻrgatishni yaxshi yoʻlga qoʻyish lozim. Oʻqituvchi tomonidan sanoq, shtrix, temp, dinamika va applikatura qoidalari jiddiy ma'suliyat bilan oʻrgatilsa, kelgusida oʻquvchi-talaba hech qiynalmay oʻz sohasini mukammal egallaydi. Bundan kelib chiqadiki, asarlarni notaga qarab ijro etish talabaning nazariy va amaliy bilimlarini boyitib, umumiy musiqiy rivojlanishiga yordam beradi.

Mutaxassis oʻqituvchi talabaga bizgacha meros boʻlib kelgan xalq mumtoz kuylari va maqomlarni ijro etishda xalq an'anaviy ijrochilik yoʻllari bilan birga jahon kompozitorlari asarlarini oʻrganishga katta ahamiyat berishi lozim. Buning uchun mutaxassis - oʻqituvchining oʻzi tajribali ustoz, mohir sozanda boʻlishi kerak. Shundagina u oʻquvchi,

talabalarga o‘zbek, xalq mumtoz kuylari, maqomlari bilan birga qardosh xalq kuylarini ijro etishdagi uslublari, ijrochilik yo‘llarini to‘liq, singdira oladi. Talaba o‘z ustida ishlash orqali yillar davomida olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlab ijro mahoratini oshirib boradi.

2.2. Afg‘on rubobi cholg‘usining tuzilishi

Afg‘on rubobi cholg‘usining tovush tembri ud cholg‘usiga juda yaqin, lekin sozlanishi, ijro etish uslublari hamda texnik imkoniyatlari qashqar rubobi bilan bir xil.

Afgon rubobi cholg‘usi asosan, kosa, dasta,va bosh qismdan tashkil topgan.

Kosa – bir-biriga yopishtirilgan bir nechta taxtachadan, pastki va yuqorigi qopqoqdan, torlarni mahkamlashga mo‘ljallangan ilmoqlardan iborat. Ustki qopqoqqa baliq teri qoplangan bo‘lib, unga xarrak o‘rnatiladi. Hozirgi kunda ustalarimiz kosani tut daraxtidan o‘yma yoki qovurg‘asimon qilib ham tayyorlamoqdalar. Pastki qopqoq yog‘ochdan tayyorlanib kosaga zich qilib biriktiriladi.

Dasta - kosaga mahkam biriktirilib, unga 19 ta parda o‘rnatiladi. Ular ebonit materialidan tayyorlanib ohangdor, mayin, jarangli musiqiy sado hosil qilishga yordam beradi. O’rganuvchi sozandalarga qulay bo‘lishi uchun pardalarning tartib raqami yuqori xarrakdan boshlab (2,5,7,10,12,14,17,19) pardalari dumaloq belgilar bilan ajratiladi. Dasta qulay va pishiq bo‘lishi lozim. Dastaning o‘lchami - qalinligi, torlarning ishchi qismi uzunligi, pardalar va torlarning dastadan qancha balandda turishi afg‘on rubobini chalish qulay bo‘lishi uchun qo‘yiladigan eng muhim talablardandir.

Afg‘on rubobining bosh qismida - torlarni sozlanishini ta’minlaydigan va tortish uchun mo‘ljallangan 5 ta quloqlar o‘rnatilgan.

MIZROB (mediator)

Afg‘on rubobi cholg‘usida tovush chiqarish mizrob (mediator) yordamida torlarni chertish natijasida hosil qilinadi.

Tovushning sof chiroyli yangrashi faqat cholg‘uning sifatigagina emas, balki mediatorning sifatiga ham bog‘liqdir. Mediator ebonit yoki plastmassadan tayyorlanadi. A`nanaviy ijroda yog‘och yoki suyakdan tayyorlangan mediatordan foydalanilgan. Ebonitdan tayyorlangan mediator ancha pishiq va ijro uchun qulay hisoblanadi. Ijro davomida edirilmaydi, tiniq, to‘la tovush beradi. Mediator qattiq, egilmaydigan bo‘lishi kerak. Mediatorning katta-kichikligi musiqa cholg‘usining hajmiga bog‘liq.

Ijro vaqtida sozanda qo‘lidan sirg‘alib tushib ketmasligi uchun uning keng qismiga o‘yiqlar (ikki tomondan) qilinadi.

Mediator o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan ushlanadi. Ko‘rsatkich barmoq go‘yo yarim aylana hosil qilgan tarzda bo‘g‘inlari bukiladi. Mediator shu barmoqning birinchi bo‘g‘imiga yaqinroq, y’ani tirnoqqa yaqin tutilib, ikkinchi tomonidan esa bosh barmoqning etli qismi bilan qisiladi. Ko‘rsatkich va bosh barmoqlar tuxumsimon shakl hosil qilishi lozim.

Boshqa barmoqlar (oʻrta, nomsiz barmoq va jimjiloq) koʻrsatkich barmoqqa bukilib, birlashtirilishi kerak. Barmoqlarni oʻrta boʻgʻimlarda keng yoyish tavsiya etilmaydi, chunki harakat vaqtida sozandaning qoʻl holatining erkinligiga halaqit beradi.

Afgʻon rubobi cholgʻusi ikkita juft torlardan iborat boʻlib, uchinchi tori yakkadir. Cholgʻu torlari pastdan yuqoriga 1,2,3 tartibda sanalib, torlar oraligʻi kvarta intervaliga sozlanadi. Afgʻon rubobi cholgʻusini sozlashda ustozlar yordamiga tayanib, quloqlarimiz orqali tovushlarni his etib, eshitib pianino yoki ovoz belgilovchi asboblardan (kamerton) foydalanishni tavsiya etamiz. Cholgʻuda chalish qulayligi va tovush hosil qilish sifati torlarni tanlash, ular oʻrtasidagi masofaning qandayligiga bogʻliq. Torlar juft-juft qilib, albatta bir xil yoʻgʻonlikda va quyidagi kesimda tanlanadi.

Misol: Cholgʻu torlarining diametri millimetr bilan oʻlchanadi:

1 – juft torining diametri 0.7-0.8 mm.

2 – juft torining diametri 1.2-1.3 mm.

3 – toq torining diametri 1.9-2 mm.

2.3. Afg‘on rubob cholg‘usini sozlash

Afg‘on rubobi cholg‘usining birinchi juft tori **lya**, ikkinchi juft tori **mi** hamda oxirgi bittalik tori **si** yoki asarga qarab **lya** tovushlariga sozlanadi.

Afg‘on rubobi cholg‘usi transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, nota yozuvida yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Diapazoni kichik oktava “**lya**” tovushidan uchinchi oktava “**mi**”-“**fa**” tovushigacha.

2.4. Cholg‘uchining ijro paytidagi holati

Ijro paytida gavda va cholg‘uni erkin holatda to‘g‘ri tutish, tashqi ko‘rinishni chiroyli bo‘lishiga e’tibor berish, afg‘on rubob cholg‘usida ijrochilikni yaxshi o‘zlashtirish uchun eng muhim vazifalardan biridir.

Ijro etish paytida oʻrindiqga suyanmasdan, oʻrindiqning yarmiga oʻtirish lozim.

Oʻng oyoq chap oyoq tizzasiga qoʻyilib, chap oyoq butun kafti bilan yerga (polga) tegib turadi. Oyoq uchlariga tayanish tavsiya etilmaydi. Toʻgʻri oʻtirilganda afgʻon rubobi cholgʻusida 3 ta asosiy tayanch nuqtasi boʻladi;

1 - tayanch nuqta afgʻon rubobini kosasini oʻng oyoq soniga qoʻyish;

2 - tayanch nuqta oʻng bilakni kosaning yuqori qismiga osiltirib qoʻyish;

3 - tayanch nuqta koʻkrak qafasining oʻng tomoni bilan kosa qismini bir oz qisish;

4 - qoshimcha nuqta, dastani chap qoʻl yordamida ushlab turish;

Cholgʻuning dastasi taxminan chap elka balandligida ushlab turiladi. Stulga oʻtirgan vaqtda sozanda gavdasini bir oz oldinga cholgʻuga tomon chiqarib, egilmay oʻtirishi, boshini dasta tomonga yarim burib toʻgʻri tutishi lozim, Gavdani oldinga harakatlantirganda uning ogʻirlik tayanchi oʻng oyoqqa koʻchiriladi.

2.5. Oʻng qoʻl holati

Oʻquvchi-talaba ijro paytida oʻng qoʻlning erkin harakatiga erishish uchun toʻgʻri holatni aniqlab, mizrobni ushlash paytida barmoqlarning zich turishiga katta e’tibor berishi kerak. Torlarning oraliq masofalarini ham e’tiborga olish lozim. Ayniqsa ijro etish harakati amalga oshirilayotgan paytda, tordan-torga oʻtish jarayonida oʻng qoʻl bilaklari qisilmasdan erkin holatda boʻlishi, mediatorni pastga-tepaga urganda torlar orasidagi oraliq

masofa bir xil bo‘lmog‘i zarur. Afg‘on rubobi cholg‘usining ijro paytdagi ovoz sifati o‘ng qo‘l bilagini cholg‘uga to‘g‘ri qo‘yilishi va toliqmasligiga bog‘liqdir. Bunda o‘ng qo‘l bilagini tirsakkacha qopqoqning yuqori qismiga osiltirib qo‘yib, ya’ni torlar boylanadigan tortutqichlarning ustiga qo‘yiladi. Bilak ijro paytida siqilmasdan erkin holatda bo‘lmog‘i zarur ana shunda cholg‘uda chiroyli va to‘la qiymatli tovush hosil bo‘ladi.

2.6. Chap qo‘l holati

Talabaning texnik tayyorgarligi, barmoqlarning chaqqonligi, pardalarda erkin harakatlanishi va sof umumiy tovush hosil qilish madaniyati chap qo‘lning to‘g‘ri qo‘yilishiga bog‘liq. Ijro etish vaqtida cholg‘uning dastasi chap qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoq o‘rtasida joylashib bosh va o‘rta barmoqlar bir-birining to‘g‘risida bo‘ladi. Barmoqlar bilan dastani qattiq siqmagan holda, kaftni dastaga tekkizmasdan ushlash tavsiya etiladi. Ko‘pincha ba’zi talabalar chap qo‘lning kaftini cholg‘u dastasiga yopishtirib, tirsakni chap biqinga yaqinlashtirib oladilar. Bu noto‘g‘ri holat; tirsakni biqindan 10-15 sm masofa uzoqlikda tutish lozim, shunda chap qo‘l barmoqlarining erkin harakatiga halaqit bermaydi. Chap qo‘l barmoqlarining asosiy vazifasi cholg‘uda dasta bo‘ylab turli ovozlar chiqarishga xizmat qiladi.

Talabaning cholg‘u dastasiga barmoqlarini aniq qo‘yishi ijro vaqtida toza sof tovush xosil qilish bilan birga, ijrochining tashqi ko‘rinishiga ham ijobiy yordam beradi.

II bob yuzasidan savollar.

1. Afg‘on rubobi cholg‘usi ijrochiligida nimalarga e’tibor berish kerak?
2.Cholg‘uchi ijro paytida nimalarga e’tibor berishi kerak?
3.Afg‘on rubob cholg‘usining tuzilishi haqida nimalar bilasiz?
4.Afg‘on rubobi cholg‘usining sozlanishi, diapazoni qanday?
5.Soz ijro etishda o‘ng va chap qo‘l vazifalari nimalardan iborat.?
6.Cholg‘uchining ijro paytidagi holati.

II bob yuzasidan topshiriqlar.

1**.** Afg‘on rubobi cholg‘usining tuzilishi haqida gapirib bering.
2**.** Pianino yoki ovoz belgilovchi asboblardan (kamerton) foydalangan holda mustaqil afg‘on rubobini sozlashni o‘rganing
3. Afg‘on rubobi bilan bir qatorda transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular qaysilar
4. Qo‘lning erkin harakatiga erishish uchun o‘ng qo‘l mashqlari ustida ishlang.
5. Pardalarda erkin harakatlanish va sof tovush hosil qilish uchun chap qo‘l mashqlari ustida ishlang.

III Bob. Shtrixlar, tovushlarni bir-biriga bog‘lash yollari

Ijro etish uslublari

Uslublar – musiqaviy fikrni mazmuni mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bezaklar – kuyni nechog‘lik ta’sirchan, serjilo, yoqimli sadolanishiga va tinglovchilar qalbiga yetib borishiga xizmat qiladi.[1]

Yakka zarb

